



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar oyida Toshkent shahar korxonalarini tomonidan 3,9 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 98,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (56,4 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 8,9 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 3,9 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 42,9 % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 12,7 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 29,5 % ni tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish 8,1 martaga oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 28,4 % ga, tabiiy gaz 3,5 % ga, gazli kondensat 7,8 %, hamda graviy qazib olish 88,6 % ga pasaygan.





Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar	2021-yil yanvar	Farqi +/-
Neft, ming t.	47,7	55,8	8,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	3 083,1	2 975,7	-107,4
Gaz kondensati, ming t.	69,6	64,2	-5,4
Chaqiq tosh, ming t.	1,5	3,0	1,5
Shag'al , ming t.	0,48	5,4	5,0



Ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar oyida ishlab chiqarish sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,2 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 72,4 % ni tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 7,0 % ni (2020-yilning yanvar oyida 6,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali 10,5 % (14,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 14,8 % (13,9 %) va quyi texnologiyali 24,1 % (24,4 %) ni tashkil etdi.

**2020-yil
yanvar % da**



**2021-yil
yanvar % da**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 19,4 % (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 84,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi 4,3 % (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 115,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 7,4 % (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 93,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 87,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 78,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar oyi ishlab chiqaradigan sanoatda 29,8 mln. dona butilka (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan 21,3 % ga o'sgan), 658,0 ming litr uzum vinosi (31,9 %), 232,6 mln. dona tamaki mahsuloti (51,7 %), 2 422,2 ming litr aroq 100 % spirt (54,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.






Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar	2021-yil yanvar	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	16 400,0	21 987,0	5 587,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	260,2	96,2	-164,0
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	1 414,6	842,4	-572,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	7 339,0	5 393,0	-1 946,0
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	30 927,0	24 903,0	-6 024,0



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,47 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,0 % ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 138,5 % ga oshganligi kuzatildi.






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar	2021-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	35,1	36,1	1,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 005,3	2 117,9	112,6
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	65 690,0	77 954,0	12 264,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar	2021-yil yanvar	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,6	5,6	0,0
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	36,9	41,8	4,9
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	12,7	12,4	-0,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 13,3 % ga oshdi. tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 2,4 % ga pasaydi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar o'zgarish kuzatilmadi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,1 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga kamaygan , uning jami sanoatdagi ulushi 28,6 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar oyida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 52,5 % dan 56,2 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 11,4 % (2020- yil yanvar oylarida 9,8 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 16,0 % ni shuningdek, Uchtepa tumani 15,1 % ni, Mirobod tumani 12,5 % ni, Sirg'ali 10,9 % ni, Olmazor tumani 8,5 % ni hamda Chilonzor 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (102,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (116,5 %), Sirg'ali (112,1 %), Mirzo Ulug'bek tumanlarida (108,2 %) hamda Shayxontoxur (103,9 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar oyida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	1 122,8	100,0	93,4
Uchtepa	309,7	15,1	97,3
Bektemir	182,5	7,1	62,8
Yunusobod	162,5	5,6	99,7
Mirzo Ulug'bek	322,1	6,1	108,2
Mirobod	425,7	12,5	116,5
Shayxontohur	189,3	3,5	103,9
Olmazor	211,1	8,5	80,7
Sirg'ali	278,7	10,9	112,1
Yakkasaroy	262,5	3,9	74,8
Yashnobod	1 394,2	15,9	92,1
Chilonzor	151,1	7,3	83,7
Yangihayot	60,3	3,6	102,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 20,7 %, shuningdek, Sirg'ali 14,3 % ni, Yashnobod tumani 11,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Uchtepa (93,6 %), Yunusobod (92,8 %), Sirg'ali (90,2 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar oyida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	364,0	100,0	80,3
Uchtepa	30,6	8,4	93,6
Bektemir	75,4	21,0	71,5
Yunusobod	35,7	9,8	92,8
Mirzo Ulug'bek	14,3	3,9	78,0
Mirobod	11,4	3,1	82,9
Shayxontohur	12,5	3,4	85,6
Olmazor	42,8	11,7	75,4
Sirg'ali	52,0	14,3	90,2
Yakkasaroy	3,8	1,0	77,6
Yashnobod	23,0	6,3	62,8
Chilonzor	23,1	6,3	82,8
Yangihayot	39,5	10,8	85,8

Hududlar kesimida noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib 21,0 % ni, shuningdek, Sirg'ali 14,3 % ni, Olmazor 11,7 % ni, Yangihayot 10,8 % ni, Yunusobod 9,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Uchtepa (93,6 %), Yunusobod (92,8 %), Sirg'ali (90,2 %), Yangihayot (85,8 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar oyida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	631,0	100,0	99,9
Uchtepa	139,0	22,0	98,1
Bektemir	3,7	0,6	20,8
Yunusobod	19,9	3,2	98,8
Mirzo Ulug'bek	54,5	8,6	120,4
Mirobod	128,5	20,4	120,8
Shayxontohur	16,6	2,6	110,9
Olmazor	52,9	8,4	85,7
Sirg'ali	58,4	9,3	131,4
Yakkasaroy	38,0	6,0	71,6
Yashnobod	61,1	9,7	85,7
Chilonzor	41,6	6,6	94,0
Yangihayot	17,0	2,7	159,7




**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2021- yil yanvar mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	3 949,6	98,2
Uchtepa	309,7	100,8
Bektemir	182,5	71,4
Yunusobod	162,5	54,5
Mirzo Ulug'bek	322,1	102,4
Mirobod	425,7	97,8
Shayxontohur	189,3	107,6
Olmazor	211,1	100,2
Sirg'ali	278,7	104,3
Yakkasaroy	262,5	94,9
Yashnobod	1 394,2	102,0
Chilonzor	151,1	96,0
Yangihayot	60,3	105,5



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Yunusobod (2020-yil yanvar oyiga nisbatan 54,5 %), Bektemir (71,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (116,5 %), Sirg'ali (112,1 %), Mirzo Ulug'bek (108,2 %) hamda Shayxontoxur tumanlarida (103,9 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,3 %), Mirobod (10,8 %), Mirzo Ulug'bek (8,2 %), Uchtepa (7,8 %) hamda Yakkasaroy (6,6 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (1,5 %) hamda Chilonzor (3,8 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021-yil yanvar oyida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 0,8 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiheyot tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,8 %), Chilonzor tumanida (58,8 %), Yunusobod tumanida (45,2 %), Olmazor (40,7 %), Sirg'ali (39,3 %), Uchtepa (14,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Mirobod (8,5 %), Yashnobod (8,9 %) va Bektemir (13,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,5 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,4 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,9 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,8 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,9 %) Shayxontohur tumaniga, 1,3 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar oyida shaharda 215 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 31 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,4 %) Chilonzor tumanida, 24 tasi (11,6 %) Uchtepa tumanida, 24 tasi (11,2 %) Yunusobod tumanida, 22 tasi (10,2 %) Shayxontohur tumanida, 21 tasi (9,8 %) Mirobod tumanida, hamda 20 tasi (9,3 %) Sirg'ali tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 167 ta), Chilonzor (1 991 ta), Uchtepa (1 914 ta), Yunusobod (1 744 ta) hamda Shayxontohur (1 431 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 fevral 2021 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 fevral holatiga)



2021-yilning 1-fevral holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (503 ta), Yangihayot (523 ta), Mirobod (934 ta), Yakkasaroy (1 259 ta), Yashnobod (1 277 ta), Mirzo Ulug'bek (1 332 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16